

Xo'jayev boshchiligidagi Sodiq Muhammadiyev, Naimjon Yoqubovlardan iborat maxsus komissiya Sharqiy Buxoroga yuboriladi. Ota Xo'jayev 1921-yil 12-avgust kuni Baljuvonda qo'rбoshilar Davlatmandbek, Kamolbiy va Qayum To'qsabolar bilan BXSR hukumati nomidan muzokaralar o'tkazadi. Ikki o'rtada sulk shartnomasi tuziladi.

Otaulla Xo'jayevning ko'p qirrali va samarali faoliyati solnomasiga qisqa muddat bo'lsada, BXSR hukumatining Moskva (RSFSR) vakolatxonasini boshqargan davri muhim o'rin tutadi. Avvalo Otaulla Xo'jayev Buxoro hukumatining Rossiya davlatidagi vakolatxonasini boshqargan tarixiy-xronologik chegaraga aniqlik kiritishga zarurat mavjud ekanligi ko'zga tashlanadi. Buxorolik jurnalist va adib N.Naimov: "Otaulla Xo'jayev 1922 yildan Moskvada ikki yil yashab, BXSRning Rossiyadagi vakolatxonasini boshqardi" – deb qayd etsa, professor S.I. Inoyatov: "1922-yilning yanvar-may oylarida Otaulla Xo'jayev Rossiya davlatida BXSRning muxtor vakili bo'lib xizmat qiladi. 1923-yil may oyidan esa Xalq Nozirlar Kengashi raisi lavozimini vaqtinchalik bajara boshlaydi" – deb yozgan.

Otaulla Xo'jayev Buxorodagi ko'plab istiqbolli yoshlarni Moskva, Sankt-Peterburg shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus bilim yurtlariga yo'llaydi. Shuningdek, Germaniya va Turkiya davlatlariga o'qishga jo'natish, ularni mablag' bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatadi. Uning imzosi bilan Germanianing Moskvadagi vakolatxonasiga yuborilgan rasmiy xabarlardan birida: "BXSR o'zining talabalarini ixtisos ilmi tahsil etmak uchun Germaniyaga yubormakni orzu qiladur. Hozirgi vaqtda mening tarafimdan Buxoro xalq maorif nazoratidan xat olundi. Mazkur xatda ko'rsatiladurkim, Germaniyaga yuborilaturg'on talabalarning miqdori 30 nafar belgilangan va yoshlari 10 ila 15 orasidadur", deyilgan.

Jadidlar oruzusidagi Turkiston ilg'or ta'limga, ma'rifatga, taraqqiyotga asoslangan edi; bu orzu qobiqni, chegaralarni, monarxiya va diktaturani inkor etadi. Yurt ozodligi va saodati yo'lida shirin jonidan kechgan ma'rifatparvar bobolarimizning pok nomi tiklanishi chin ma'noda tarixiy haqiqat tantanasi bo'ldi. Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Mahmudxo'ja Behbudiy, Otaulla Xo'jayev, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'pon kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzurhalovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi".

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda biz bugungi kunda bu jadidlarni nimaga o'rganamiz degan savolga javob shundan iboratki: "Jadidlar ilmiy me'rosi asosida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat".

Ma'lumki, Otaulla Xo'jayevning Buxoro ozodligi uchun kurashda turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan harakatlarni tuzgani yuksak e'tirofga loyiq edi. Mazkur harakat maqsadalariga ko'ra, Vatan, millat va davr oldida turgan ulkan ijtimoi-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarni Turkiston xalqlarini ma'rifatli qilish, ular hayotini qaytadan madaniylashtirish va zamonaviylashtirish yo'li bilangina hal etish mumkin edi. Bunday miqyosli va tarixiy vazifani tor doiralarga mansub yoki muayyan tabaqaviy qarashlarga asoslangan oqim hal qilolmasdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O'zbekiston tarixi.-T:Iqtisod-Moliya,2016
2. S.A'zamxo'jayev. Turkiston Muxtoriyati. – T:Ma'naviyat,2000
- 3 Q.Ergashov, H.Hamidov. Ozbekiston tarixi.T:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2018
4. L.P.Muhammedjonova, M.M.Alimova. – Buxoroda Jadidchilik harakati tarixidan,-B:Durdona nashriyoti,2019
5. E. Erkayev. Turkistonda jadidchilik harakati va ularning islohotchilik faoliyati, - Andijon,2015
6. Germaniyaga talabalar yubormak ishining borishi//Buxoro axbori, 93-son. 1922 yil 27 iyul
7. Naimov N. Buxoro jadidlari (Tarixiy ocherklar, hujjatli qissa). – Toshkemt. Fan. 2000 yil
8. Inoyatov S. Buxoroi sharif xo'jalari: Usmon Xo'ja, Otaulla Xo'jayev, Fayzulla Xo'jayev ajdoddari va avlodlari shajarasi. Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2022. – B. 122-123.

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TINISH BELGILARINI O'RGATISH TAMOYILLARI

Tosheva Xushnoza Tohirovsna

*Navoiy viloyati G'ozg'on shahar I- maktabning  
boslang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boslang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini o'rgatish metodikasi, tamoyillari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** punktuatsiya, nuqta, vergul, so'roq, undov, gap qoliplari.

O'r ganiladigan tinish belgilari. Ma'lumki, punktuatsiya tinish belgilarining ishlatalishi haqidagi qoidalar yig'indisidir. "Punktuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi". Boslang'ich sinflarda to'rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatalishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boslang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur. Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatalishi va o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilari qo'yilmagan) yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. SHuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi.

I-sinf o'quvchilariga savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar "Alifbe" o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o'qishga oldindan tayyorlash uchun chizmadan foydalaniladi. Masalan, bolalar gap tuzadilar, undagi so'zlarni sanaydilar va o'qituvchi rahbarligida chiziqlar bilan belgilaydilar:

Biz ertakni sevamiz. \_\_\_\_\_ .

Bir necha darsdan so'ng o'quvchilar gaplarni o'qiy boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda albatta nuqtali kartochkalardan foydalaniladi. O'quvchilar gapni yozganda o'qituvchi nuqta qo'yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo'yilmasa, xato hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo'yish lozimligini tushuntiradilar. SHunday yo'l bilan gapning oxiriga nuqta qo'yish ko'nikmasi shakllantiriladi. So'roq va undov belgilari bilan ham savod o'rgatish davridayoq tanishtiriladi. Bolalar so'rash mazmunini bildirgan gaplarni o'qiydilar. O'quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya'ni gapning oxirida ovozni ko'tarish bilan o'qishga o'rgatiladi.

3-sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chiqurlashtiriladi. Shu vaqtidan boshlab o'quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo'yilishini anglay boshlaydilar. "Darak gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda nuqta qo'yilishi, "So'roq gap" mavzusi bilan bog'liq holda so'roq belgisi va "Undov gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda undov belgisining qo'yilishi o'rgatiladi.

4-sinfda o'quvchilar "Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusi o'rganilganda sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O'qituvchi ikki gapni o'qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko'rsatadi. Masalan, Biz ona tilimizni sevib o'rganamiz (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi). Men, Ra'no, Alisher boshqa tillarni ham sevib o'rganyapmiz (Men, Ra'no, Alisher so'zlaridan so'ng ovoz bir oz oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi). Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar har xil mashqlarni ishslash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o'rgatish davridayoq o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o'qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o'rgatadi. Masalan, Olma, olcha, nok – meva. Kitob – bilim bulog'i.

Ona tili darslarida so'zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o'qituvchi I sinf o'quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo'yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O'qituvchi aniq misollar bilan sanab ko'rsatilgan so'zlardan oldin ikki nuqta qo'yilishini, har bir so'zning vergul bilan ajratilishini ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o'qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o'stirib boradi.

O'quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rniда ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik-punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalananiladi. Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishslashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalinishni ta'minlaydi.

### FOYADALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartlari va o'quv dasturi(Boshlang'ich ta'lim). T,2017.
- 2.Qosimova K.,Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.,2019.
- 3.Ikromova R.,G'ulomova X. Toshkent: 2020.